SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 1
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Xoliqova Matluba Mardon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti assistenti

Meyliyeva Feruza Azamat qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya
Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili darslarini samarali tashkil etishda didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi yoritilgan hamda didaktik o‘yinlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni, ahamiyati va ularning o‘quvchilarning nutqiy, tafakkuriy hamda ijodiy faolligini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yin metodlari orqali o‘quvchilarda til birliklarini ongli o‘zlashtirish, grammatik qoidalarni amaliy qo‘llash va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar
Ta’lim jarayoni, didaktik o‘yin, o‘yin metodlari, boshlang‘ich sinf, aql charxi, noto‘g‘ri jumla, mazmunan qarindosh shaklan begona, g‘ijimlangan qog‘oz.

KIRISH

Ta’lim jarayoni doimiy rivojlanish va yangilanishni talab qiladi. Bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biri – ta’lim jarayonini qiziqarli, interfaol va samarali qilishdir. Ta’lim va tarbiya yosh avlodning eng muhim boyligi, millat kelajagi poydevoridir. Biz yoshlarimizni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlab, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashimiz zarur. Shu maqsadda zamonaviy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini faollashtirish va uni qiziqarli hamda samarali qilish maqsadida turli metod va yondashuvlardan foydalaniladi. Ushbu metodlar orasida didaktik o‘yinlar alohida o‘rin tutadi. Didaktik o‘yinlar ta’im jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash va ularni qiziqtirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Didaktik o‘yin bu ma’lum maqsadga qaratilgan, qoidalar bilan chegaralangan, o‘quv jarayonida bilim olishni o‘yin shaklida tashkil etishga imkon beruvchi metod hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilarning bilimini oshirishga, balki ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish kabi ko‘nikmlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘zlarining psixologik va fiziologik xususiyatlariga ko‘ra, bilishga, o‘rganishga intiluvchan, faol, lekin diqqatini uzoq vaqt bir narsada jamlay olmaydigan yosh guruh hisoblanadi. Shu sababli ularning e’tiborini darsga jalb qilish va o‘quv materialini samarali o‘zlashtirish uchun innovatsion va noan’anaviy metodlardan, xususan didaktik o‘yinlardan foydalanish juda muhimdir. Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida, tafakkuri va dunyoqarashi rivojida eng muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu bosqichda ona tilini o‘qitish o‘quvchining tilga, madaniyatga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘z samarasini beradi. Bugungi davrda ta’lim tizimida an’anaviy darslar o‘rniga noan’anaviy muqobil ta’limni, ya’ni innovatsion, yangi texnologiyalarni, interfaol ta’limni joriy etishni hayotning o‘zi taqozo etadi. Ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilishi, o‘quvchiga oliy qadriyat sifatida qarash dolzarb masalaga aylanmoqda. O‘quvchilarning universal o‘quv-biluv ko‘nikmalarini shakllantirish bosh maqsadga aylanmoqda. Bunda o‘quvchining ehtiyoji, moyilligi, qiziqishi, faolligini oshiruvchi o‘yinlardan vosita sifatida keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘yin davomida bolaning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi. Birinchi sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan bolaning faoliyatida ham o‘yin asosiy o‘rinda turadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchi faoliyatidan o‘yinni siqib chiqarmasdan maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Shuning uchun ham boshlang‘ich ta’limni didaktik o‘yinlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar-o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul.

O‘yin vositasida o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil predmetlar bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi. O‘yin vositasida bolaning shaxsi shakllanadi, unda kelgusida o‘quv va mehnat faoliyatini tashkil etish va insonlar bilan munosabatga kirishishga oid ruhiy xususiyatlar shakllanadi. O‘yin orqali bolalar borliqni o‘rganadi va dunyoni o‘zgartirishga harakat qiladi. Shunday qilib o‘yin inson faoliyatining shakllanishiga asos soladi. O‘yinda inson borliqni aks ettirish qobiliyatini namoyon qiladi. O‘yinning eng muhim ahamiyati shundaki, unda ilk bor bolaning dunyoga ta’sir etish ehtiyoji paydo bo‘ladi va shakllanadi. Maktab yillarida o‘yin shakllari yanada kengroq rivojlanadi. O‘quvchilarning o‘yin faoliyati juda ko‘p soha olimlarning, ya’ni faylasuflar, sotsiologlar, biologlar, san’atshunoslar, etnograflar, ayniqsa, pedagoglar va psixologlarni qiziqtiradi.

Aql charxi – didaktik o‘yini vositasida o‘quvchilar mustaqil tafakkur yuritishga o‘rganadilar, ularning intellektual qobiliyatlari rivojlanib, ravon nutqlari shakllanadi. O‘yin o‘quvchilarni ikki yoki uch o‘quvchidan iborat guruhlarga bo‘lish orqali amalga oshiriladi. Guruh tarkibidagi bir o‘quvchi mavzuga oid so‘zdan birini aytadi, ikkinchi o‘quvchi birinchi o‘quvchi aytgan so‘zni takrorlab, yana bir so‘z qo‘shadi. Shu tariqa uch o‘quvchi tomonidan 324 ta so‘z aytilgach, navbat yana birinchi o‘quvchiga keladi. O‘yin shu tariqa davom etadi. Biror o‘quvchi adashib ketsa yoki aytilgan so‘zni qaytarib aytsa, guruh o‘yindan chiqadi.

Noto‘g‘ri jumla – bu o‘yin suratlar asosida o‘tkaziladi. O‘quvchini suratni tasvirlab berishi asnosida suratlarga tegishli bo‘lmagan jumlalarni topishlari lozim. O‘quvchilardan bu o‘yin davomida ziyraklik, sinchkovlik, kuzatuvchanlik va diqqat talab qilinadi. Ular suratni sinchkovlik bilan kuzatib turib o‘qituvchining hikoyasini ham diqqat bilan tinglab turadilar. Har bir noto‘g‘ri jumlani topa bilish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va darsga qiziqishini orttiradi. Bu o‘yindan faqat ona tili darslarida emas, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish mumkin.

“Mazmunan qarindosh shaklan begona” o‘yini. Bu o‘yinni tashkil etishda sinf o‘quvchilari guruhlarga ajratiladi. O‘yinni boshlagan qator (guruh) muayyan mavzuda gaplar tuzishadi, ikkinchi qator mazmuni saqlagan holda so‘zlarni ma’nodoshlar bilan almashtirish orqali gap shaklini o‘zgartirishadi. Keyin o‘yinda vazifalar almashtiriladi. O‘qituvchi har bir shakli o‘zgartirilgan gap uchun ball qo‘yib boradi va o‘yin oxirida eng ko‘p ball olgan guruh g‘olib sanaladi.

“G‘ijimlangan qog‘oz” o‘yini. Bu ta’lim jarayonida ishlatiladigan samarali, interaktiv metodlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning fikrlash, muhokama qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarni faol fikrlashga undash, jamoaviy ishlashni kuchaytirish, har bir o‘quvchining fikrini inobatga olish, mavzuni erkin, noan’anaviy tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘yinnini o‘tkazish jarayoni o‘qituvchi qog‘ozni g‘ijimlab, mavzuga oid atama tushunchalarni yozishni buyuradi. Qog‘oz g‘ijimlanadi va boshqa o‘quvchiga uzatiladi. Har bir o‘quvchi o‘ziga kelgan qog‘ozni ochib o‘qiydi, unga javob qo‘shadi yoki izoh beradi. Yakunda qog‘ozlar yig‘iladi va umumiy tahlil qilinadi. Bu o‘yinning afzalliklari: har bir o‘quvchi ishtirok etadi, yozma va og‘zaki fikrlash rivojlanadi, o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, dars jonlanadi, zerikish oldi olinadi.

Didaktik o‘yinlar bu o‘quv jarayoniga qiziqish uyg‘otish, bilimlarni mustahkamlash va amaliy mashqlarni qiziqarli tarzda olib borish vositasidir. Didaktik o‘yin - bu o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan, o‘yin elementlariga ega bo‘lgan metod bo‘lib, asosiy maqsadi o‘quvchilarni faol ishtirokiga jalb qilish va bilimlarni mustahkamlashdir. Bu o‘yinlarda ma’lum pedagogik maqsad ko‘zlanadi va ular darsning turli bosqichlarida qo‘llaniladin (kirish, mustahkamlash, nazorat, takrorlash va boshqalar). Didaktik o‘yinlar til o‘rganish jarayonida samarali metodlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning faolligini oshiradi, darsni jonlantiradi. Ta’lim jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali usul hisoblanadi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularning faol ishtirokini ta’minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, didaktik o‘yinlar orqali

o‘zlashtirilgan bilim uzoq muddatli xotirada yaxshiroq saqlanadi. Bu metodning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchi o‘yin jarayonini bosqichma – bosqich shakllantirishi va har bir o‘quvchining ishtirokini ta’minlashi lozim.

Ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish – o‘quvchini shunchaki til qoidalarini yodlaydigan emas, balki o‘rganganini ongli, faol va ijodiy tarzda qo‘llay oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Buning uchun tanlanadigan o‘yinlar darsning maqsadi, mavzusi, o‘quvchining yosh psixologiyasi, til darajasi va metodik xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. Maktablarning moddiy-texnik bazasi, sinfda o‘quvchilar soni, o‘qituvchining tajribasi o‘yin tanlashda bevosita ta’sir qiluvchi omillardir.

Darslarni didaktik o‘yinlar vositasida amalga oshirish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko‘mak beradi. Yangi mavzuni o‘zlashtirishda yoki o‘tgan darsni mustahkamlashda didaktik o‘yinlardan foydalanib, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

XULOSA. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanishning nazariy asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, o‘yinlar nafaqat o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, balki ulrning nutqiy faolligini, fikrlash salohiyatini va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda ham samarali metodik vosita hisoblanadi. Psixologik-pedagogik nuqtai nazardan olib qaraganda, didaktik o‘yinlar bola psixikasining tabiiy rivojlanishiga mos keladi, chunki bola o‘yinda o‘zini erkin his qiladi, mustaqil fikrlaydi va o‘z bilimini faol tarzda qo‘llashga intiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga mos tanlanganda, ular til o‘rganish jarayonini osonlashtiradi, bolalarning so‘z boyligini oshiradi, grammatika va imlo bo‘yicha bilimlarini mustahkamlaydi.Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni tarbiyalashning eng to‘g‘ri va samarali metodidir. U ma’lum bir materiallar yoki shart-sharoitlarni talab etmaydi, balki o‘qituvchidan o‘yinni tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarni talab etadi. Boshlang‘ich ta’limda motivlar hosil qilishda didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. O‘yinsiz tom ma’nodagi aqliy rivojlanish bo‘lishi mumkin emas. O‘yin o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni uyg‘otadigan uchqundir. O‘yin boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’lum sifatlarni shakllantirish uchun kattalar – o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan usul. Didaktik o‘yinda bola yaxshi xulqiy sifatlarga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. T.G‘affarova., Sh.Nurullayeva “Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida didaktik o‘yinlar va mustaqil ishlar”, Qarshi: Nasaf 2023.
2. M.M.Azimova “Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish metodikasi”, Pedagogika jurnali, Toshkent, 2020.
3. N.N.Nishonova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini rivojlantirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati”, Toshkent, 2018.
4. B.B.Davlatov “Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlarning pedagogi asoslari”, Toshkent: Akademnashr, 2021.
5. G.I.Karimova “Boshlang‘ich sinf savod o‘rgatish darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish”, Ta’lim va innovatsiyalar, 2021.
6. S.O.Ochilova “Ona tili darslarida o‘quvchilar faolligini oshirishda didaktik o‘yinlar”, Ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2024.